

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Y.Q.Qayumova, X.M.Komilova	
Turkiston Qum balig'i Gobio lepidolaemus (K.Kessler1872)ning morfometrik xususiyatlarining qiyosiy tahliliga oid	103
U.I.Obidjanov	
Biologiya o'qitish metodikasidan laboratoriya ishlarini takomillashtirishning ayrim masalalari.....	108
E.X.Najmiddinov, M.A.Muxammadiyev	
Baliqlarning gelmintoz kasalliklariga qarshi antigelmint preparatlarni qo'lash usullari	112
M.M.Mirzaxalilov	
Shahrixonsoyda tarqalgan Kushakevich yalangbalig'ining (Iskandaria kuschakewitschi) ba'zi morfobiologik ko'rsatkichlari	115
N.B.Ikramov	
Shimoliy Farg'onan kanali algoflora taksonlarining mavsumiy dinamikasi	119

GEOGRAFIYA

M.H.Otamirzayeva	
Daryo havzalari landshaftlarini tadqiq etishning zamonaviy metodlari	126
O.I.Abdug'aniev, D.B.Kosimov	
Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining reprezentativligi va samaradorligini baholash usullari.....	133
M.R. Atabayeva	
O'zbekiston tabiiy geografiyasi kursida "Ichki suvlari va suv boyliklari" mavzusini interfaol o'rganishda klaster usulidan foydalanishning ahamiyati	139
O.I.Abdug'aniev, T.D.Komilova	
Tabiat xilma-xilligi: nazariy asoslari, yondashuvlar va o'rganish usullari	144
P.R.Qurbanov	
O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari rivojlanishining asosiy bosqichlari	150

ILMIY AXBOROT

Q.B.Baratov	
Bo'lajak o'qituvchilarini uzliksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash tizimini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari	158
A.N.Qosimov	
O'quvchilarda sport vositasida milliy identiklikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik mazmuni	166
J.V.Solijonov	
Bo'lajak pedagoglarda mantiqiy tafakkur rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	172
A.Aloxunov	
Arxeologik tadqiqot usullari xususida	175
I.Aldashev	
O'quv jarayoniga media ta'limning integratsiyasi	182
I.R.Asqarov, G.A.Mo'minova	
Dalachoy tarkibidagi vitaminlar miqdorini aniqlash va ularning organizmga ta'siri	188
F.O.Toshboltayev	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasi asosida rivojlantirish modeli	194
A.N.Meliboyev	
Inson oliy qadriyat tamoyili asosida jamiyatda kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlarining kelgusidagi vazifalari	199
I.A.Suvanov	
Global o'zgarishlar jarayonida AQShning mafkuraviy taraqqiyot yo'li va uning o'ziga xosligi	205
G.R.Mamadalieva	
Ingliz va o'zbek tillarida "foot/oyoq" kontseptining nominativ maydoni	211
M.O.Habibullaev	
Korruptsiyanı vujudga keltiruvchi ijtimoiy omillari va unga qarshi kurashning mexanizmlari	219
F.T.Raximova, S.S.Usmanova	
Minimal matnlarning kognitiv tahlili	222

KORRUPSIYANI VUJUDGA KELTIRUVCHI IJTIMOIY OMILLARI VA UNGA QARSHI KURASHNING MEXANIZMLARI

СОЦИАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ КОРРУПЦИИ И МЕХАНИЗМЫ БОРЬБЫ С НЕЙ

SOCIAL FACTORS CAUSING CORRUPTION AND MECHANISMS OF FIGHTING IT

Habibullayev Ma'rufjon Odiljon o'g'li¹

¹Habibullaev Ma'rufjon Odiljon o'g'li

– Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada korrupsiya va korruksiyaviy xatti-harakatlarning vujudga keltiruvchi ijtimoiy omillar, ularning turlari hamda korruksiyaga qarshi kurash mexanizmlarining mazmuni nazariy jihatdan yoritib berilgan.

Аннотация

В данной статье теоретически разъясняются социальные факторы, вызывающие коррупцию и коррупционное поведение, их виды, содержание механизмов противодействия коррупции.

Abstract

This article theoretically explains the social factors that cause corruption and corrupt behavior, their types, and the content of anti-corruption mechanisms.

Kalit so'zlar: Korrupsiya, korruksiyani vujudga keltiruvchi omillar, korruksiyaga qarshi kurash mexanizmlari, antikorruptsion tafakkur, fuqarolik pozitsiyasi, jamoatchilik nazorati.

Ключевые слова: коррупция, факторы, вызывающие коррупцию, механизмы противодействия коррупции, антикоррупционное мышление, гражданская позиция, общественный контроль.

Key words: Corruption, factors causing corruption, anti-corruption fighting mechanisms, anti-corruption thinking, civil position, public control.

KIRISH

Korrupsiya illati nafaqat hozirgi kunda, balki u mavjud bo'lgan barcha zamon va makonlarda ham davlat mamlakatlar o'zining va jamiyat uchun tom ma'nodaga fofija bo'lib kelgan. Guvohi bo'lmoqdamizki korruptsiya illatining salbiy oqibatlari natijasida ayrim mamlakatlar o'zining iqtisodiy taraqqiyoti va ijtimoiy barqarorligini izdan chiqaruvchi hodisa va jarayonlarga duch kelmoqda.

Taraqqiyotning hozirgi davriga kelib o'zining ma'naviy-madaniy jihatdan yuksak hisoblagan jamiyat korruptsiyaning har qanday ko'rinishiga nisbatan murosasiz va toqatsizlik muhitini shakllantirishga urinmoqda. Boisi, terrorizm va ekstramizm kabi jiddiy tahdidlar qatori korruptsiya ham davlatning milliy xavfsizligi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga qaratilgan uzoq muddatli tahdid hisoblanadi. Shuning uchun ham ayni davrga kelib korruptsiyaga qarshi kurashishning ijtimoiy omillari va mehanizmlarini tahlil qilish, ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Insoniyat necha ming yildirki o'zining tarixiy taraqqiyoti davomida korruptsiya hech qachon ezzulikka qaratilgan emasligini, aksincha har doim davlat va jamiyat manfaatlariga, insonlarning umuminsoniy qadriyatları va axloqiy fazilatlariga qarshi qaratilgan eng og'ir jinoyat ekanligiga guvoh bo'lishmoqda.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

Bugun korruptsiya illati jamiyatning barcha jabhalariga birdek kirib borgan umumbashariy epidemiyaga aylandi. Bu nafaqat davlat organlari va fuqarolariga, balki, xususiy sektorlar va notijorat tashkilotlarga shuningdek, davlatlarning xalqaro maydondagi munosabatlariga ham o'zining salbiy ta'sirini o'tkazadi. "Korruptsiya" iborasining o'ziyoq har qanday davlatning poydevorini emirish uchun etarli hisoblanadi. Garchi u sodir bo'lgan vaqtida qurbonsiz jinoyat ko'rinishida bo'lsada, ma'lum muddatda davlat va jamiyat uchun keng qamrovli salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan oqibatlarga olib keladi.

Bugungi kunga kelib korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning turli xil usul va vositalari taklif qilinmoqda. Ayrimlar birinchi navbatda jazoni kuchaytirish kerak desa, yana ayrimlar xodimlarning ish haqini oshirish kerakligini, yana boshqalar esa o'llim jazosini joriy qilish yoki ommaviy axborot vositalarining faolligini oshirish zarurligi kabi ko'plab fikr-mulohazalarni

yuritishmoqda. To'g'ri, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishda jazo mexanizmlarini kuchaytirish lozim va bu jahon tajribasida ham mavjud. Lekin, eng avvalo, odamlarning dunyoqarashini o'zgartirmasdan, ularda antikorrupsion tafakkurni shakllantirmsandan, davlat xizmatlari ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatmasdan turib samarali natijaga erishish qiyin bo'ladi.

Agar korrupsiyani huquqiy nuqtayi nazardan tahlil qiladigan bo'lsak, u o'z vakolatlarini shaxsiy manfaatlar uchun suiiste'mol qilish deb baholanadi. Bu esa turli ko'rinishlarda namoyon bo'lishi, ya'ni pora olishdan tortib, o'zaro manfaatdorlik, noqonuniy va noodatiy harakatlarni sodir etish va nepotizmga qadar davom etadi. Bu axloqsiz amaliyat nafaqat davlat budgetini kamaytiribgina qolmay, balki odamlarning siyosiy tizim va hukumatga, shuningdek o'zaro bir-biriga bo'lgan ishonchini ham kamaytiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashda huquqiy chora-tadbirlar bilan birga ijtimoiy-ma'naviy omillar ham muhim o'r'in egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida yangi O'zbekiston ma'naviyatida halollik, to'g'rilik tamoyili hayotimizning bosh maqsadi va qadriyatiga aylanishi, mamlakatimizdagi mavjud ijtimoiy illatlarga, xususan, korrupsiyaga qarshi kurashda jamoatchilik rolini oshirish, kerak bo'lsa, to'g'rilik va halollikka barcha vositalar bilan bo'lsa ham o'rgatish masalasiga alohida to'xtalib o'tilganligining o'ziyoq jamiyatda halollik, rostlik, to'g'rilik fazilatiga ega bo'lishga intilishning yalpi ijtimoiy harakatga aylanishi^[1] korrupsiyani yengishdagি ijtimoiy zarurat sifatida baholanmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashning eng yaxshi usuli - bu uni oldindan oldini olishdir. Oldini olish qanday bo'ladi? Shaxslarni korrupsiyaviy amallardan saqlab turish bilan boshlanadi. Bu qanday amalga oshiriladi?-Korrupsiyaning kelib chiqish sabablari va undan ko'rildigan zararlar haqida xalqga chuqur ta'lim berilishi va uning har qanday ko'rinishiga o'ta murosasizlik va toqatsizlik kayfiyatini shakllantirish kerak. Bir qarashda bu qiyin ko'rinishi mumkin, ammo, bu adolatli jamiyatni saqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shunday ekan, korrupsiyani yengib o'tishda ijtimoiy omillar muhim ahamiyatni egallaydi.

Korrupsiyaga qarshi kurashning ijtimoiy omillari deganda – antikorrupsiyaviy ta'lim, jamiyatda korrupsiyaga qarshi toqatsizlik va murosasizlik kayfiyatini shakllantirish, korrupsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, unga qarshi jamoatchilik nazoratini shakllantirish masalalari tushuniladi.

Korrupsiyaviy xatti-harakatlarni vujudga kelishiga sababchi bo'lishi mumkin bo'lgan salbiy ijtimoiy omillarga quyidagilar kiradi:

1. Fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatining pastligi.
 2. Xulq-atvorning axloqiy tamoyillarini yemirilishi va milliy-umuminsoniy qadryatlarning qadrsizlanishi.
 3. Hokimiyat tuzilmalarida shaffoflik va oshkoraliykning yo'qligi yoki to'liq ta'minlanmaganligi.
 4. Fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanmaganligi.
 5. Jazosizlik yoki jazoning muqarrarligi prinsipi mukammal emasligi.
 6. Aholi o'rtaida antikorrupsion ta'lim va xabardorlik darajasining pastligi.
 7. Erkin ommaviy axborot vositalari va mustaqil sudyalarining yetishmasligi.
- Korruptsiyaga qarshi kurash mexanizmlariga esa quyidagilar kiradi:
1. Fuqarolarning huquqiy madaniyati va tarbiyasini rivojlantirish.
 2. Samarali huquqiy tizimni yaratish va uning bajarilishini to'g'ri nazorat qilish.
 3. Fuqarolik jamiyati institutlari, masalan, ommaviy axborot vositalari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqalarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish.
 4. Yangi ish o'rinalarini yaratish, aholi turmush darajasini oshirish va boshqalar hisobiga kambag'allik darajasini pasaytirish.
 5. Korrupsiyaga oid xatti-harakatlari uchun mansabdar shaxslarni ham, jismoniy shaxslarni ham bir xilda javobgarlikka tortish.
 6. Qonun ustuvorligi va sud hokimiysi mustaqilligini mustahkamlash.
 7. Qarorlar qabul qilishda inson omilini kamaytiradigan va korupsion sxemalar ehtimolini kamaytiradigan elektron hukumat va yagona axborot tizimini joriy etish.

8. Fuqarolarning huquq va majburiyatlari to'g'ririsida aholining bilim va xabardorlik darajasini oshirish.

9. Korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash.

Umuman olganda, korrupsiyaga qarshi kurashish kompleks yondashuv va jamiyatning barcha qatlamlari ishtirokini taqozo etadi. Bu nafaqat davlatning, balki har bir fuqaroning ham vazifasidir.

Bugungi kunga kelib korrupsiyaga qarshi kurashish borasida salmoqli sa'y-harakatlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, hali qilinadigan ishlarimiz ko'p. Bu ijtimoiy kasallik butun dunyo bo'ylab son-sanoqsiz mamlakatlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tizimlariga ta'sir ko'rsatib kelayotgan keng tarqalgan muammodir. Ushbu muammoga qarshi kurashish uchun jamiyat uning tarqalishiga yordam beradigan ijtimoiy omillar va qarshi turadigan mexanizmlarni chuqur anglab etishi va har qanday holatda ham buni hisobga olishi kerak.

Umuman olganda, so'nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati ancha takomillashib, amalga oshirilayotgan huquqiy va tashkiliy islohotlar natijasida davlatning bu boradagi faoliyatida ijobjiy natijalar qayd etilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz kerakki, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida korrupsiyaga qarshi jadal kurashishning davlat siyosatlarining asosiy masalalaridan biri sifatidan ko'rsatmoqda. U mamlakatda korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga qarshi kurashga sodiqligini ochiq aytib, manzilli va tizimli islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Pirovardida esa korrupsiyaviy jinoyatlarning salmog'i keskin kamayib, respublikamiz aholisi tomonidan korrupsiyasi qabul qilish indeksi reytingi ham yaxshilanib bormoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, korrupsiya jamiyat asoslariiga jiddiy xavf soladigan balodir. Uning mayjudligini tan olish, unga qarshi ta'lif berish va profilaktika choralarini ko'rish orqali biz uning salbiy oqibatlarini bartaraf eta olamiz. Shuningdek, axloqiy xulq-atvorni targ'ib qilish va korruptsiyaga qarshi qonunlarni qo'llash orqali biz hamma uchun shaffof, halol va adolatli jamiyat qurishga yordam bera olamiz.

Mazkur ijtimoiy hastalikni insonlar ongidan bevosa siqib chiqaruvchi ma'naviy – ma'rifiy ishlarni muntazam olib borilishi bu illatning jamiyat hayotiga salbiy ta'sirini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qilishi tabiiy hol, albatta. Yana takrorlab o'tamiz, bunday ma'naviy buzilish holatiga qarshi kurashda faqat davlat organlari emas, balki jamiyat va, umuman, barchamiz birdek mas'uldirmiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar. // Manba: www.president.uz/uz/lists/view/3324

2. Зуфаров Р.А.Ахарров Б.Ж.Мирзаев У.М. Коррупция. Қонун. Жавобгарлик. Монография //Масъул мұхаррир: ю.ф.д., проф. М.Х.Рустамбаев. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2011. – Б. 11.

3. Бурханов А.Хайитов Х.Ўзбекистонда коррупсияга қарши курашиб соҳасидаги ислоҳотлар янги босқичда // "Жамият ва бошқарув" журнали, –Тошкент: 2021. – № 4. – Б. 14-23.